

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR ONGIDA MILLIY-MADANIY QADRIYATLARGA HURMATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Dilfuza Alisher qizi

Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani

14 - umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish masalalari yoritilgan. Milliy qadriyatlar yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida muhim omil sifatida qaraladi. Boshlang‘ich sinf darslarida qadriyatlarni o‘rgatishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotda pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanishi muhim o‘rin tutadi. Maqola natijalari boshlang‘ich ta‘limda milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы внедрения национальных ценностей в процесс начального образования. Национальные ценности рассматриваются как важный фактор духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения. Анализируются эффективные методы преподавания ценностей на уроках в начальных классах. Также показываются пути формирования у учащихся таких качеств, как патриотизм, уважение и доброжелательность. В исследовании особое внимание уделяется педагогическим подходам и применению инновационных технологий. Результаты работы способствуют повышению эффективности воспитания национальных ценностей в начальной школе.*

Annotation: *This article explores the integration of national values into the process of primary education. National values are considered as an essential factor in the moral and spiritual upbringing of young learners. The paper analyzes effective methods of teaching values in primary school lessons. It also highlights ways to foster qualities such as patriotism, respect, and kindness among students. Pedagogical approaches and the use of innovative technologies play an important role in the research. The findings of the article contribute to enhancing the effectiveness of promoting national values in primary education.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta‘lim, milliy qadriyatlar, madaniyat, pedagogika, tarbiya, o‘quvchi, ma‘naviyat, an‘ana, axloq, hurmat, ta‘lim jarayoni, innovatsiya, didaktika, o‘qituvchi, rivojlanish*

Ключевые слова: *начальное образование, национальные ценности, культура, педагогика, воспитание, ученик, духовность, традиция, мораль, уважение, образовательный процесс, инновация, дидактика, учитель, развитие*

Keywords: *primary education, national values, culture, pedagogy, upbringing, student, spirituality, tradition, morality, respect, educational process, innovation, didactics, teacher, development*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri — yosh avlod ongida milliy-madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishdir. “Milliy qadriyatlar davlat yosh avlodni tarbiyalashda o‘ziga xos ‘ma’naviy meros manbasi’ sifatida xizmat qiladi va ularning pedagogik tatbiqi zamonaviy ta‘lim jarayonini tubdan boyitadi” .

Milliy qadriyatlarga asoslangan ta‘lim, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, “ta‘lim, agar milliy qadriyatlar va madaniy-merosga asoslanib olib borilsa, o‘quvchilarda vatanga sadoqat, o‘z-o‘zini anglash va mas’uliyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi” . Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta‘minlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida milliy-madaniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritiladi. Maqola asosan boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari, pedagogika yo‘nalishi talabalariga va ta‘lim sohasi mutaxassislariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda mazkur jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya qadimdan jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblangan. Har bir davrda ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyati, ularni komil inson qilib voyaga yetkazish burchi alohida qadrlangan. Shuning uchun ham oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida tarbiya jarayonida beqiyos o‘rin tutadi.

Asosiy qism

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati haqida olimlardan biri ta’kidlaydi:

“Ma’naviyat insonning ichki dunyosini boyitadi, uni maqsad sari etaklaydi, axloq esa shu maqsadga erishishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi” . Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, oila farzandni nafaqat moddiy tomondan, balki ma’naviy dunyosini shakllantirishda ham tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev oilaning jamiyatdagi o‘rni haqida shunday deydi:

“Oila – bu tarbiya maskani, jamiyatning tayanchi va asosiy bo‘g‘ini. Farzandlarimiz qanday inson bo‘lib ulg‘ayishi, avvalo, oiladagi muhitga bog‘liq” .

Bu fikr oiladagi ma’naviy-axloqiy muhitning farzand kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Oila tarbiyasida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi. A. Qahhorova o‘z tadqiqotida ta’kidlaydi:

“Milliy an’ana va qadriyatlar oilaviy tarbiya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular farzand ongida milliy o‘zlikni shakllantiradi” .

Shunday ekan, ota-onalar farzandlarga qadimiy urf-odatlarimizni singdirishi orqali ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini uyg‘otadilar.

Ammo bugungi globallashuv davrida oilaviy tarbiya jarayoniga tashqi ta’sirlar kuchayib bormoqda. Zamonaviy kommunikatsiyalar, internet, ijtimoiy tarmoqlar farzandlarning ma’naviy-axloqiy qarashlariga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, psixolog olimlar ta’kidlaganidek:

“Ota-onalar farzandlarining ma’naviy immunitetini kuchaytirishi, ularni yaxshiyomonni farqlay olish qobiliyatiga ega qilib tarbiyalashi zarur” .

Menimcha, bu fikr bugungi kunda yanada dolzarb bo‘lib, oilada bolalarga nazorat emas, balki ishonchli suhbat, to‘g‘ri yo‘naltirish muhimdir.

Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali amalga oshirishda pedagogik texnologiyalar ham alohida ahamiyatga ega. Pedagog olim N. Xudoyberdiyeva bu borada shunday yozadi:

“Oila muhitida qo‘llaniladigan ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar farzandning shaxs sifatida shakllanishini tezlashtiradi va samarali qiladi” .

Bunga misol sifatida ota-onaning farzand bilan hamkorlikda kitob mutolaa qilishi, oilaviy suhbatlar, tarbiyaviy o‘yinlar, birgalikdagi ijodiy mashg‘ulotlarni keltirish mumkin.

Shuningdek, oila va maktab hamkorligi ham muhimdir. Chunki ta’lim muassasalarida olingan bilim oilada davom ettirilmasa, tarbiya samaradorligi pasayadi. Bu haqda R. Jo‘rayevning fikri o‘rinli:

“Farzand tarbiyasida oila va maktabning o‘zaro uzviy hamkorligi natijasida barkamol avlod tarbiyalanadi” .

Shunday ekan, ota-ona va o‘qituvchi birgalikda farzandning axloqiy sifatlarini shakllantirishda yagona maqsad sari intilishlari lozim.

Mening fikrimcha, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya faqatgina ota-onaning mas’uliyatiga emas, balki butun jamiyatning e’tiboriga bog‘liq. Chunki bugungi axborot asrida farzandni birgina oila chegarasida himoya qilish qiyin. Shu bois davlat, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari ham bu jarayonda faol ishtirok etishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya nafaqat farzand kamolotining, balki jamiyat kelajagining kafolatidir. Qadriyatlarimizni asrab-avaylash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va oila-maktab hamkorligini mustahkamlash orqali bu jarayon yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish nafaqat oila a’zolarining, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy qismda ko‘rib o‘tganimizdek, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi samimiy munosabat, milliy qadriyatlar va an’analarni e’zozlash, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ijtimoiy-pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ko‘plab muammolar o‘z yechimini topishi mumkin.

Shuningdek, bugungi globallashuv davrida yoshlarning ongini turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish, ularda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi xislatlarni shakllantirish oila va ta’lim muassasalarining hamkorlikda ishlashini talab etadi. Bu

jarayonda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi tarbiya samaradorligini oshiradi, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, oilaviy muhitda ma‘naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish – kelajak avlodning taqdirini belgilovchi, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini kafolatlovchi eng asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

Kitoblar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
3. Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Qodirov A. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.

Gazetalar

5. “Milliy qadriyatlar – yoshlar tarbiyasida muhim omil”. Xalq so‘zi, 2022 yil, 15-may.
6. “Ta‘lim va ma‘naviyat uyg‘unligi”. O‘zbekiston ovozi, 2023 yil, 12-mart.

Maqolalar

7. Tursunova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma‘naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash”. – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021, №2.
8. Raxmatova G. “Milliy-madaniy merosning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati”. – Ta‘lim taraqqiyoti ilmiy jurnali, 2020, №4.

Ommaviy axborot vositasidan

9. “O‘zbekiston TV – Yoshlar kanali”. “Milliy qadriyat va ma‘naviyat saboqlari” ko‘rsatuvi, 2023 yil, 7-noyabr.

Internet xizmatidan

10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi rasmiy sayti – www.maktab.uz
 11. Milliy ma‘naviyat portali – www.ma'naviyat.uz
- Boshqa turli xil ma‘lumotlar bazasidan
12. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron bazasi: “Pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami”, 2022.
 12. Google Scholar ma‘lumotlar bazasi – “National-cultural values in primary education”, 2021.